

NAQL-MAQOLLARNING BOSHQA FOLKLOR JANRLARI BILAN MUNOSABATI

Jiemuratova Feruza Erejepovna,

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi
Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti*

jiyemuratovaferuza@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada qoraqalpoq xalq naql-maqollarining boshqa folklor janrlari bilan umumiy o'xshashligi, farqli taraflari va o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. Xususan, ertak, doston, topishmoq, afsona kabi janrlar bilan shakl va mazmun uyg'unligi yoritiladi.

Kalit so'zlar. Naql, maqol, folklor, og'zaki ijod, janrlararo bog'liqlik, ertak, afsona, doston, topishmoq.

ATASÖZLERIN DIĞER FOLKLOR JANRLARI ILE ILİŞKISI

Jiemuratova Feruza Erejepovna

*Özbekistan Cumhuriyeti Bilimler Akademisi Karakalpakstan bölümü
Karakalpak Beşeri bilimler araştırma enstitüsü doktora öğrencisi*

Özet. Bu makalede, Karakalpak halk atasözlerinin diğer folklor türleriyle genel benzerlikleri, farklılıkları ve karşılıklı bağımlılıkları analiz edilecektir. Özellikle, masal, destan, bilmece, efsane gibi türlerle biçim ve içerik uyumu ele alınmaktadır.

Anahtar kelimeler. Atasözü, folklor, sözlü yaratıcılık, türler arası bağlantı, masal, efsane, destan, bilmece.

СООТНОШЕНИЕ ПОСЛОВИЦ С ДРУГИМИ ФОЛЬКЛОРНЫМИ ЖАНРАМИ

Жиемуратова Феруза Ережеповна,

*Каракалпакское отделение Академии наук Республики Узбекистан
докторант Каракалпакского научно-исследовательского института гуманитарных наук*

Аннотация. В данной статье анализируются общие сходства, различия и взаимосвязи каракалпакских народных пословиц и поговорок с другими фольклорными жанрами. В частности, освещается гармония формы и содержания с такими жанрами, как сказки, эпосы, загадки, легенды.

Ключевые слова. Поговорка, пословица, фольклор, устное творчество, межжанровая связь, сказка, легенда, эпос, загадка.

THE RELATIONSHIP OF PROVERBS WITH OTHER FOLKLORE GENRES

Jiemuratova Feruza Erejepovna,

*doctoral student of the Karakalpak branch of the Academies
of Sciences of the Republic of Uzbekistan*

Abstract. This article analyzes the general similarities, differences, and interrelationships of Karakalpak folk proverbs and sayings with other folklore genres. In particular, the harmony of form and content with such genres as fairy tales, epics, riddles, and legends is highlighted.

Keywords. Proverb, folklore, oral creativity, intergenre connections, fairy tale, legend, epic, riddle.

“Uzoq tarixiy taraqqiyot davomida yagona badiiy tizim va janrlar tarkibi yuzaga kelganligi xalq og‘zaki ijodi donishmandligidek qadimiy manaviyat merosi janrlararo munosabat aspektida o‘rganilar ekan, bizgacha yetib kelgan turli namunalar butun bir etnosqa taalluqli bo‘lgan madaniy rivojlanish tarixi haqida ham tasavvur hosil qilishga yordam beradi” [1, 30]. Xalq og‘zaki ijodi turli janrlardan tashkil topgan bo‘lib, ularning har biri xalq tafakkuri, hayotiy tajribasi va dunyoqarashini aks ettiradi. Ushbu janrlar ichida maqollar alohida o‘rin tutadi, chunki ular xalq donishmandligini, ma‘naviy qadriyatlarini va axloqiy mezonlarini qisqa va lo‘nda shaklda ifodalashga xizmat qiladi. “Maqollar shaklan ixcham bo‘lsalar-da, badiiyatiga ko‘ra yuksak obrazlilikka egadirlar” [4, 295]. Maqollar boshqa folklor janrlari – ertaklar, dostonlar, topishmoqlar va afsonalar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular bilan ma‘nosi, vazifasi va shakliiy xususiyatlari jihatidan o‘zaro aloqadorlik kasb etadi.

Ushbu maqolada qoraqalpoq xalq naql-maqollarning folklorning boshqa janrlari bilan munosabatlari, ularning o‘zaro bog‘liqlik darajasi va farqlari tahlil qilinadi.

Maqollarning umumiy xususiyatlari va janrlararo bog‘liqlik; Maqollar xalqning hayotiy tajribasi asosida shakllangan bo‘lib, ularning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Ixchamlik – qisqa va lo‘nda shaklda bo‘lishi;

Obrazlilik – badiiy vositalar orqali tasviriy kuchga ega bo‘lishi;

Didaktiklik – pand-nasihat va axloqiy qadriyatlarni targ‘ib etishi;

Umumiylik – ko‘plab xalqlarda o‘xshash shaklda uchrashi;

Maqollar boshqa janrlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ularning barchasi xalq tafakkurining natijasi sifatida paydo bo‘lgan. Ko‘plab folklor janrlarida maqollar qatnashadi yoki ular bilan mustahkam bog‘lanib ketgan. "Folklor janrlari bir-biridan mazmun va badiiy xususiyatlari bilan farq qiladi. Masalan: she‘rning dostonidan, dostonning maqoldan, maqolning ertakdan farqi shunda. Albatta, ularning badiiyligida farq bo‘lsa-da, mazmunida, g‘oyaviy yo‘nalishida qandaydir yaqinlik bo‘lishi mumkin” [2; 67].

Maqollarning boshqa folklor janrlari bilan aloqadorligi:

1. Maqollar va ertaklar.

Ertaklar xalq ijodining eng keng tarqalgan janrlaridan biri bo‘lib, ular axloqiy-me‘yoriy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazish vositasi hisoblanadi. Maqollar esa ushbu qadriyatlarni qisqa va lo‘nda shaklda ifodalaydi. Ertaklarning ko‘plab turlarida maqollar hikmatli so‘z sifatida ishlatiladi.

O‘xshashliklar:

-Ikkalasi ham tarbiyaviy mazmunga ega.

-Ikkalasi ham xalq donishmandligini aks ettiradi.

-Ertaklarda ko‘pincha qahramonlar maqollar orqali donishmandlik namoyon qiladi.

Farqlar:

-Ertaklar odatda uzoq hikoya shaklida bo‘lsa, maqollar ixcham va qisqa bo‘ladi.

-Ertaklar fantastik yoki sarguzasht voqealarni o‘z ichiga oladi, maqollar esa aniq hayotiy tajribaga asoslanadi.

Misol: “*Miyneti azdin miywası az*” [3; 174] maqoli ko‘plab ertaklarda qahramonlarning donoligini ifodalashda ishlatiladi.

2. Maqollar va dostonlar.

Dostonlar xalq qahramonlarining hayoti, jasorati va sarguzashtlarini aks ettiruvchi epik janr hisoblanadi. Ular tarixiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, maqollar bilan bog‘liq holda rivojlanadi.

O‘xshashliklar:

-Ikkalasi ham xalq tafakkurini aks ettiradi.

-Ikkalasi ham ma‘naviy qadriyatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Farqlar:

-Dostonlar keng hajmli bo‘lib, uzoq vaqt davomida hikoya qilinadi.

-Maqollar mustaqil hikmatli so‘z bo‘lib, tez va lo‘nda ifodalanadi.

Misol:

Alpomish dostoni qahramonlari ko'pincha maqollar orqali donoligini namoyon qiladi, masalan: *"Dushpan'ga isenbe, suw'ga si'yenbe"*

3. Maqollar va topishmoqlar.

"Albatta, topishmoq ham, maqol ham alohida-alohida mustaqil janrlar bo'lib, ularni bir-birlariga aralashtirib yuborish mumkin emas." [5; 35] Topishmoqlar turli narsalar yoki hodisalar haqida savol-javob shaklidagi tasviriy iboralar bo'lib, ular bolalar tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'xshashliklar:

-Ikkalasi ham xalq og'zaki ijodining qisqa janri hisoblanadi.

-Ikkalasi ham obrazlilik va poetik vositalardan foydalanadi.

Farqlar:

-Maqollar hikmatli xulosa chiqarsa, topishmoqlar mantiqiy fikrlashga undaydi.

- Maqollarning ma'nosi aniq bo'lsa, topishmoqlar yashirin ma'noga ega.

Misol:

Topishmoq: *"Tawdan balent, saydan tereñ" (Aql)* [3; 380]

Maqol: *"Aqillida ash'w bolmas"* [3; 140]

4. Maqol va afsona

Maqol va afsona janrlari xalq og'zaki ijodining muhim turlaridan bo'lib, ular bir-biriga bog'liq, lekin har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning o'zaro munosabatini quyidagi jihatlar orqali tushunish mumkin:

Maqol va afsonaning umumiy jihatlari;

-Hayotiy tajriba va donishmandlik – Har ikkisi xalqning ko'p yillik tajribasi va donishmandligini aks ettiradi. Afsonalar ham, maqollar ham insonlarga hayotiy saboqlar berishga qaratilgan.

- Og'zaki ijod namunalari – Ikkalasi ham avloddan-avlodga og'zaki tarzda o'tib kelgan va xalq og'zaki ijodi tarkibiga kiradi.

- Ma'naviy tarbiya vositasi – Ular axloqiy va tarbiyaviy mazmun kasb etadi. Masalan, afsonalar orqali qadimiy e'tiqodlar va ibratli voqealar hikoya qilinsa, maqollar bu tajribalarni qisqa va lo'nda tarzda ifodalab beradi.

Farqli jihatlari;

Maqollar qisqa va lo'nda bo'ladi, ular fikrni siqilgan holda, ramziy ma'noda yetkazadi. Masalan: *"Miyet t'ubi r'ahát"* [3;174]

Afsonalar esa kengroq hikoya shaklida bo'lib, ko'pincha voqealarga asoslangan bo'ladi. Ular qadimiy e'tiqodlar, qahramonlar yoki tabiat hodisalariga oid bo'lishi mumkin. Masalan, "Tók tawí" kabi afsonalar. Afsonalarda ko'pincha fantastik unsurlar bo'ladi, maqollarda esa real hayotiy tajriba ifodalanadi.

O'zaro bog'liqligi;

Ba'zi maqollar o'z ildizini afsonalardan olishi mumkin. Masalan, biror afsonada tasvirlangan voqea yoki qahramon haqida xalq orasida yillar o'tib maqollar paydo bo'lishi mumkin. Shuningdek, ba'zi afsonalar maqollarni asoslash yoki tushuntirish maqsadida keltirilishi ham mumkin.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, maqollar folklorning boshqa janrlari bilan chuqur bog'liq bo'lib, ular bilan birgalikda xalq tafakkurining shakllanishiga xizmat qiladi. Maqollar masallar, ertaklar, dostonlar va topishmoqlar bilan o'zaro ta'sirda bo'lib, ularning didaktik va badiiy mazmunini boyitadi. Maqol va afsona janrlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular xalq donishmandligi va hayotiy tajribasini turli shakllarda ifoda etadi. Afsonalar ko'proq hikoyaviy va tasviriy bo'lsa, maqollar fikrni siqilgan holda, qisqa va ta'sirchan tarzda ifodalaydi. Shu bois, ularni bir-birini to'ldiruvchi janrlar deb hisoblash mumkin. Maqollar xalq donishmandligining eng ixcham ifodasi bo'lib, boshqa folklor janrlaridan olingan hayotiy saboqlarni umumlashtirib, qisqa shaklda yetkazish imkonini beradi. Shu sababli, ularni o'rganish va keng targ'ib qilish xalq madaniyatini saqlash va rivojlantirish yo'lida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alimov S. O'zbek tili va adabiyoti. №5, 1998-yil, 30-b.
2. Мақсетов Қ. Қарақалпақ халқының көркем аўызеки дөретпелери. – Нөкис, «Билим», 1996, 67-b.
3. Қарақалпақ фольклоры. 88-100 томлар. – Нөкис, «Илим», 2015.
4. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent, «Musiq», 2010, 295-b.
5. Soatov B. O'zbek tili va adabiyoti. №3, 1998-yil, 35-b.
10. Buriyeva F. (2024). Faxriyor ijodiy olami: individual uslub va poetik mahoratning shakllanish tadriji. *news of the nuuz*, 1(1.6. 1), 303-305.
11. Erbutayeva, S. U. (2021). About some auxiliary words in Uzbek language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 1294-1300.